



**TIQXMMI**  
“TOSHKENT IRRIGATSİYA VA QISHLOQ  
XO’JALIGINI MEXANİZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI”  
**MTU**  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



MAVZU  
**01**-1

## AMBTB FANINIG ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLARI



Razzakov Ruslan Ishqulovich



“Ekologiya va suv resurslarini  
boshqarish” kafedrası professori

**FAN:**

ATROF-MUHITGA BO’LADIGAN  
TA’SIRNI BAHOLASH (AMBTB)



# Foydalaniladigan adabiyotlar:

- John Glasson, Riki Therivel and Andrew Chadwick. Introduction to Environmental Impact Assessment. Third Edition - Taylor & Francis eLibrary USA, 2005. 289 y.
- Saloxiddinov A.T. Atrof muhitga bo'ladigan ta'sirni baholash. – Тошкент: Chinor ENK, 2013. – 120 б.
- С. Маматов ва бошқалар. Атроф - мухитга бўладиган таъсирларни баҳолаш. – Тошкент: 2007. – 176 б.
- Кудрявцева О.В., Ледащева Т.Н. «Методика и практика оценки воздействия на окружающую среду» М-2014. – 169 с.
- РД.118.0027714.52-95 - ОВОС- Атроф-мухитга бўладиган антропоген таъсирларни баҳолашни ўтказиш тартиби тўғрисида йўриқнома.
- Справочник эколога-эксперта. Ташкент: ООО "КО'НІ-НУР", 2009.
- <https://moodle.tiiame.uz/course/view.php?id=719>

# Reja:

- Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning predmeti;
- "Barqaror taraqqiyot" tushunchasi;
- Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash tushunchasi mohiyati;
- Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning tamoyillari;
- Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni ishtirokchilari.

- Atrof tabiiy muhit – iqtisodiyot asosi, hayot kechirish va milliy boyliklar manbasi.
- 1987 yilda «Atrof muhit va taraqqiyot muammolari bo'yicha Butunjaxon komissiyasi» – «Barqaror taraqqiyot»ni kelajak avlodlar ehtiyojlariga xavf solmagan holda xozirgi avlod ehtiyojlarini qondiruvchi taraqqiyot deb baholadi. Mazkur hayot manbalarning xavfsizligi mamlakatning resurslar bazasini barqaror boshqarish va ularni rivojlantirishga bog'liqdir.
- Industrializatsiya, urbanizatsiya, va resurslar bazasidan foydalanish kengaygan sari resurslardan oqilona foydalanishga bo'lган ehtiyoj ortib boradi. Bunga erishishning instrumentlaridan biri – faoliyatlarni ekologik baholashdir.

## ❑ *Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash*

- ✓ mo'ljallanayotgan faoliyatning ekologik oqibatlarini tizimli ravishda tahlil qilish va baholash;
- ✓ manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlar;
- ✓ tahlil va maslahatlashuvlar natijalarini mo'ljallanayotgan faoliyatni rejalashtirish, loyihalash, tasdiqlash va amalga oshirishda hisobga oluvchi jarayondir.

❑ *Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash* – u yoki bu loyihaning amalga oshirilishi bilan bog'liq ta'sirlar va xavflar darajasini aniqlash maqsadida atrof-muhit holatini tahlil qilish va muhofaza tadbirlarini rejalashtirish jarayonini ifodalash uchun qo'llaniladigan umumiyl atama sifatida talqin etiladi


- *Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash va ekologik ekspertizaning maqsadlari umumiy ko'rinishda mos tushadi hamda qonun bo'yicha ular turli faoliyatlarning atrof tabiiy muhitga ko'rsatadigan ehtimoliy salbiy ta'sirlarini oldini olishdan iborat.*
- *Atrof-muhitga bo'laditgan ta'sirlarni baholash – rejalashtirish bosqichi bilan cheklanmaydi, u mo'ljallangan faoliyatlarni amalga oshirish bosqichini ham o'z ichiga oladi.*
- *Atrof-muhitga ta'sirlarni tartibga solish usullari:*
  - ✓ *Litsenziyalash*
  - ✓ *Limitlar o'rnatish.*

- ❖ *AMBTB predmeti mo’ljallangan faoliyatning atrof-muhitga ta’siridir.*
- ❖ *Ta’sir deganda mo’ljallanayotgan faoliyatning amalga oshirilishi oqibatida atrof-muhitga **to’liq yoki qisman sodir bo’ladigan o’zgarishlar** tushuniladi. Ta’sirlarni bashoratlash va ta’sirlarni yumshatish uchun bajarilishi lozim bo’lgan tadbirlarni ishlab chiqish AMBTB jarayonining asosiy tarkibiy qismi hisoblaadi. AMBTBning tizimli tabiatи belgilangan standartlar hisobga olishi mumkin bo’lмаган yig’olib boruvchi xususiyatга ega ta’sirlarni ham aniqlash imkonini beradi.*
- ❖ *AMBTB jarayonida atrof-muhit deganda nafaqat biosfera komponentlari balki landshaft, madaniy-tarixiy yodgorliklar ham qamrab olinadi. AMBTB ob’yrekti mo’ljallangan faoliyatл, ya’ni konkret loyihalar va dasturlar bo’ladi.*

## AMBTB JARAYONI TARKIBI

- ❖ *Mo'ljallangan faoliyatning atrof-muhitga bo'laadigan potensiyal ta'sirlarini tahlil (bashorat) qilish va ularni e'tiborga molikligini baholash;*
- ❖ *Barcha uchun maqbul bo'ladigan qarorlarni izlash maqsadida manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashish;*
- ❖ *Mo'ljallanayotgan faoliyatga tegishli qarorlarni qabul qilish jarayonida ta'sirlarni bashorat qilish va maslahatlashuvlar natijalaridan foydalanish.*

## Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash



## AMBTB NATIJALARI

- ❖ **AMBTB natijalari** - salbiy ta'sirlarni oldini olish yoki kamaytirish bilan birga mamlakatlarga ularning real resurslarini baholash, mo'ljallangan faoliyatdan olinadigan samarani maksimallashtirish imkonini beradi. Bu quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladigan jarayondir:
  - ✓ *Mo'ljallangan faoliyatni o'zgartirish va yaxshilash;*
  - ✓ *Resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash;*
  - ✓ *Mo'ljallangan faoliyatni ijtimoiy jixatlarini yaxshilash;*
  - ✓ *Ta'sirlarni kuzatish va boshqarish tadbirlarini aniqlash;*
  - ✓ *Asoslangan qarorlarni qabul qilishga ko'maklashish.*

# AMBTB

- ❖ Mo'lljallangan ob'ektlar qurilib topshirilgach yoki dasturlar bajarilganda noqulay ekologik ta'sirlar keyinchalik muayyan tadbirlar tufayli kamaytirilishi mumkin.
- ❖ AMBTBning bu roli rasman BMT darajasidagi uchrashuvda (Atrof muhit va taraqqiyot buyicha konferentsiyada ) Rio-de-Janeyroda 1992 yilda tan olingan.
- ❖ AMBTB milliy instrument sifatida tabiiy muhitga sezilarli ta'sir etishi mumkin bo'lgan har qanday loyiha, reja va dasturlar uchun qo'llanishi va va mutasaddi hokimiyat organlarining ruxsat mexanizmi bo'lishi lozim.

# Mamlakat va mintaqadagi ekologik muammolar, ularga misol keltiring?



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDİSLARI İNSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!